

XORAZM AN'ANAVIY KANDAKORLIK SAN'ATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i01.002>

Gulchexra Ozodovna Sultanova
sultonovagulchexra5@gmail.com

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazmda kandakorlik san'atining rivojlanish tarixi va uning o'ziga xos xususiyatlari, naqsh bezaklari borasida ma'lumotlar berilgan. Xiva kandakorlik maktabining boshqa maktablaridan farqli jihatlari, ishlash texnologiyalari, bezak turlari "Ichan-qal'a" muzey qo'riqxonasida saqlanyotgan kandakorlik asarlari misolida o'rganilgan. Xivalik kandakor ustalar ijodiga mansub muzey ashyolaridan qumg'on, selobcha, mis choynaklar shakli, bezaklari, ishlash uslublari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kandakorlik san'ati, tarixi, Xorazm kandakorlikligi, o'ziga xos xususiyatlari, naqsh bezaklari, qumg'on, jom, selobcha, mis choynak, an'analar

CHARACTERISTICS OF THE KHOREZM TRADITIONAL ART OF CARVING

Gulchexra Ozodovna Sultanova
sultonovagulchexra5@gmail.com

Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni

Abstract: This article presents information on the history of the development of chasing art in Khorezm and its specific features and ornamental decoration. The differences between the Khiva school of chasing and other schools, production technologies, and decorative patterns are examined using examples of chasing items housed in the Ichan-kala Museum-Reserve. The form, decoration, and processing methods of kumgans, selobchas, and copper cauldrons from the museum exhibits, related to the work of Khiva chasing masters, are analyzed.

Keywords: chasing art, history, Khorezm chasing, characteristics, ornamental decoration, kumgan, cup, selobcha, copper cauldron, traditions

Respublikada so'nggi yillarda xalqning tarixiy, badiiy va madaniy merosini saqlash, kelajak avlodga yetkazish, yosh avlodni umuminsoniy hamda milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. "Tarixiy merosni

asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir"¹. Bu borada moddiy-madaniy merosni keng ommaga targ'ib qilish, yosh avlodni milliy madaniyat bilan yaqindan tanishtirish orqali milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. O'ziga xos qadimiy an'analarga ega bo'lgan Xorazm madaniyati va san'ati, moddiy - madaniy merosni tadqiq etish, yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

Ko'p asrlik an'analarga ega bo'lgan amaliy san'at turlaridan biri bo'lgan kandakorlik san'ati eng qadimiy san'at turlaridan biri hisoblanadi. Ushbu san'at juda qadim tarixga ega. O'zbekiston xalqlari kandakorligining tarixiy rivojlanish yo'liga nazar solar ekanmiz, ularning turlari an'analari mushtarakligining guvohi bo'lish mumkin. Mahalliy ustalar o'z asarlarini oltin, kumush, mis, brinch va jez singari metallardan ishlaganlar. Qadimgi va ilk o'rta asr kandakorligi, asosan, hallangan kumush buyumlarida o'z ifodasini topgan. XI asrdan boshlab esa, butun O'rta va Yaqin Sharqda bo'lganidek, O'rta Osiyoda hunarmand kandakorlar o'z mahsulotlarini asosan mis va mis qotishmalaridan tayyorlay boshlaganlar.

XVIII-XX asr boshlari O'zbekiston badiiy kandakorligi namunalari muzey kolleksiyalari ichida eng saralari hisoblanadi. Buxoro, Xiva, Qo'qon, Samarqand, Qarshi, Shahrisabz va Toshkent shaharlari kandakorlik buyumlari chiqariladigan markazlar bo'lgan. Kandakorlik naqshlari tushirish tarz-yo'ysini hamma joylarda qariyb bir-biridan sira farq qilmagan va asosan (zarb) o'yima va nafis kesma turlarini o'z ichiga olgan.

XIX-XX asr boshlarida yasalgan buyumlar o'z ko'rinishlari, shakllari hamda turlarida qo'llanilishlari bo'yicha g'oyat rang-barangdir. Ayniqsa, choy damlash va suv saqlashga mo'ljallangan turli-tuman naqshlar bilan bezatilgan ko'zalarning nomlari ham har xil bo'lgan, ko'rinishlari ham bir-biridan keskin farq qilgan. Suv, sut, sharbat, shirinlik va ho'l mevalar solinadigan idishlar, dastsho'lar, doira va to'rtburchak barkashlar, sarxumlar va cho'michlar ham rasm bo'lgan.

"O'rta Osiyoda kandakorlikning rivojlanishi bilan bir qatorda uning maktablari ham yuzaga kela boshladi. XIX asrga kelib mahalliy kandakorlik maktablari to'la shakillanib bo'lgan edi."²

Kandakorlik O'rta Osiyoning boshqa hududlarida bo'lgani kabi Xorazmda, ayniqsa, Xiva shahrida ham rivojlandi. Kandakorlar oltin, kumush, mis, jez va boshqa metallardan har xil buyumlar yasab, unga naqshlar o'yishgan, qadama naqshlar bilan ziynatlaganlar. Usta hunarmandlar tomonidan tayyorlangan bunday mahsulotlarga ichki va tashqi bozorda talab katta bo'lgan. Xiva xonlik markaziga aylangandan

¹ Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 29.

² Абдуллаев Т. Маъданга битилган қўшиқ. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.

keyin shaharda mis o'ymakorligi buyumlari ishlab chiqariladigan ustaxonalar soni ortgan. Ularda yasalgan 200 ga yaqin buyumlar hozirda Xivadagi "Ichan-qal'a" muzey fondida saqlanib kelmoqda. XVIII-XIX asrlarda Xiva Markaziy Osiyoda kandakorlikning yetakchi markazlaridan biriga aylangan edi³.

Xorazm kandakorligining O'zbekiston amaliy san'ati rivojlanishida o'zining salmoqli hissasi bor, albatta. Xorazm kandakor ustalari yasagan buyumlar o'ziga xos hashamdorligi bilan ajralib turadi. Ular asosan yassi bo'rtma naqsh solish texnikasidan foydalanishadi. Shakl va naqshlarning o'ziga xosligi borasida Xorazm kandakorlik maktabi ancha barqaror xususiyat kasb etadi. Masalan, barcha turdagi xorazmcha suv ko'zalarni boshqa joylarda nomi o'zgacha bo'lgan xuddi shunday ko'zalarga na ularning shakli bilan, na bezaklari bilan taqqoslab bo'ladi. Xorazmda dastho'y emas, "selobcha" deb yuritiladigan idish, xususan, diqqatni o'ziga tortadi.

Ularning qorni kattaroq, hatto, kapi ham bo'ladi. O'zbekistonda Xivadan boshqa hech bir joyda mis nosqovoq yasalmaydi. Xiva ustalari botiq usuldagi kandakorlikdan ko'proq foydalanadilar. Kesma usulda g'oyat kam ishlaydilar. Naqsh tagidan

Selobcha Xorazm, XIX asr ustalar puanson yordamida to'g'ri-to'g'ri chiziqlar chizib qo'ya qolganlar. Xiva kandakorligi ishida zaminzarborni hech bir ishlovsiz shundoq silliqlicha qoldirish rasm bo'lgan. Xiva kandakorligida asosan islimiy naqshlar qo'llanadi. "Aylanma islimiy" deb ataluvchi usul kandakorlarning eng sevgan usuli hisoblanib, bunda goh-goh u yeridan barg tasviri to'g'ri va yonbosh qilib tushirilgan zich gajakli butoq aks ettiriladi. Xorazm kandakorlari "turunj"(medalon) va murakkab shakllar ifoda etilgan naqshlarni ko'proq ishlatadilar.

"Ichan-qal'a" muzey qo'riqxonasining "Amaliy san'at", "Xiva xonligi tarixi" va "Xorazm hunarmandchiligi" bo'limlarida boshqa amaliy san'at turlari qatorida kandakorlik buyumlari ham ekspozitsiyalardan o'rin olgan. Bu yerda asosan XIX asr va XXI asr boshlarida tayyorlangan qumg'on, tung, samovar, tuncha patnis, chilim, choynak, qopshirma, qozon, chelak, choydjush, laganlar, qoshiq, mangal, turli xil ko'rinishdagi selobchalar va jom idishlar namoyishga qo'yilgan. Ularda naqshlar bilan birga arab alifbosida yozilgan Qur'on suralaridan oyatlar, tayyorlangan sanasi, ishlagan ustaning nomi yozilganligini ko'rishimiz mumkin.

Xorazm kandakorligida keng tarqalgan suv uchun ishlatiladigan an'anaviy idishlardan biri qumg'onidir. Xivaning suv uchun qo'llanadigan qumg'on idishi mutlaqo o'zgacha shaklga ega bo'lib, dastasiz, qorni noksimon va baland ingichka bo'yinlidir. Xorazmning qadimiy naqshlangan buyumlari xushbichim va serhasham bo'lib, kandakorlar naqshlarida rangdor bo'yoqni ham, har xil qoplamani ham qo'llamaganlar. Ana shularga qarab turib beixtiyor S.P.Tolstovning Xorazmning qadimiy san'atiga bergan ta'rifini xotirlaysan. U shunday deb yozgan edi: - "Xorazm

³ G.Sultanova. "Ichan qal'a" davlat muzey qo'riqxonasidagi kandakorlik namunalari // Moziydan sado" Ilmiy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal. Toshkent, 2022. №2/94. – B. 43–46

san'ati g'oyatda oddiy va o'zining ta'sirchan vositalari behasham, shu bilan bir qatorda ma'nodordir, So'g'dning nazokatli san'atiga nisbatan birmuncha ko'rimliroqdir".

An'anaviy, milliy qumg'onlardan bir qanchasi Xiva "Ichan qala" davlat muzey qo'riqxonasi xazinasida saqlanadi. Shulardan biri KP 4639 raqamli, XIX asrga mansub qumg'on bo'lib, balandligi 41sm, qorin qismi noksimon cho'ziq va bo'yin tomon noziklashib boradi. Bo'yin va og'iz qismi xalqasimon shakldagi mis orqali birlashtirilgan. Qumg'onning qopqoqsiz va dastasiz ishlanganligi Xorazm qumg'onlariga xos xususiyatlaridan hisoblanadi. Idishning jo'mragi qorinning yon va o'rta qismidan chiqarilgan bo'lib ozroq bukilgan. Jumrakning pastki qismi yo'g'onroq, uchi tomon ingichkalashib boradi. Jumrak uchida dumoloq tugmacha, ya'ni saruna mavjud.

Qumg'on. Xiva, XIX asr. Idishning oyog'i balandroq va doira shaklga ega bo'lib xoshiya, o'simliksimon naqshlar ishlangan. Idish yapaloq qorning ikki yon tomonida tuxumsimon bo'rtma turunj ingichka xoshiya va murakkab o'simliksimon islmiy naqshlari va "madohil", "burch gul"lar bilan bezatilgan. Qumg'onning ikki yon tomoni xoshiya naqshlari bilan naqshlangan. Idishning jo'mragiga ham mayda o'simliksimon naqshlar juda nafis o'yib ishlangan. Ushbu qumg'on o'zining naqshlari bilan boshqa qumg'onlardan alohida ajralib turadi. Umuman muzeydagi qumg'onlarning umumiy ko'rinishi bir-biriga o'xshab ketsada, har biri o'ziga xos va betakroridir.

Qadimdan Xorazmda keng qo'llanilgan kandakorlik buyumlardan biri bu jom idishi hisoblanadi. Jom idishlari nafaqat XIX -XX asrlarda balki eramizning VII-XI asrlarida ham keng tarqalganligi aniqlangan. Jom - forscha mis tos yoki sharob ichiladigan idish, qadah ma'nolarini anglatadi. Mis jomlar o'ziga xos shakli va xususiyatlari jihatidan uy-ro'zig'or buyumlari orasida asosiy o'rin egallagan. Bu idishlardan suv, sharbat, sharob, sut, qatiq, ayron solib qo'yishda ishlatilgan. Jomlarning katta, kichik turlari bo'lib, ichi chuqur, keng va dumoloq shakldagi qopqoqsiz idish hisoblanadi. Noyob va bejrim qadimiy jomlardan biri "Ichan-qal'a" muzey qo'riqxonasi ekspozitsiyasidan o'rin olgan. Amaliy san'at bo'limi ekspozitsiyadagi KP 160 raqamli jom⁴ idishi - XIX asrga oid noyob eksponat hisoblanib, uning o'lchami 20x10,5sm. Jomning shakli kosa shakliga juda o'xshab ketadi. Uning og'iz qismi dumaloq bo'lib yon tomonlari yuqoridan pastga qarab qisqarib boradi va qorin qismi kapiga kelib tutashadi. Uning kapi balandroq, dumoloq shaklda ishlangan. Mis jomning tashqi tomoni bo'ylab yuqori va pastki qismlariga romb shaklidagi geometrik xoshiya naqshi va islmiy naqshlari bilan bezatilgan. Bundan tashqari jomning pastki qismida arab yozuvlarni ko'rishimiz mumkin qismida arab *Jom. XIX asr* yozuvlarni ko'rishimiz mumkin. Jomning naqshlari

⁴ "Ичан-қалъа" давлат музей-қўриқхона фонди ҳужжатлари

chuqurroq o'yib ishlangan, ichki tomoni silliq bo'lib naqshlanmagan. Muzeyda bundan tashqari turli xildagi katta-kichik, balandligi turlicha bo'lgan betakror jomlar o'rin olgan.

KP 138 raqamli mis choynak⁵ XIX asrga mansub, balandligi 15sm. Mis choynakning qorin qismi sharsimon yumoloq shakilda bo'lib, og'izida qopqog'i mavjud. Idishning jumragi yuqoriga qarab noziklashib borgan va oziroq qayrilgan. Jo'mragida maxsus ochilib yopladigan qopqog'i bor. Choynakning dastasi biroz qayrilgan, ilon shakli tasvirlangan. Dastaning yuqori qismida ilon boshi ko'zlari bilan tasvirlangan, dastaning

Mis choynak. XIX asr. pastki qismida ilonning dumi qayrilgan holatda choynakning qorin qismiga payvandlangan. "Qadimgi misgarlarning aytishiga qaraganda, ilon boshi tasviri idishni jinlardan saqlaydi."⁶ Mis choynakning bezaklariga to'xtaladigan bo'lsak, uning naqshlari nihoyatda mayda va did bilan bezatilgan. Idishning qopqog'ining usti "shabaka" ya'ni panjarali o'yma qilib "xoshiya", "islimiy" naqshlar bilan qoplangan, qopqoqning o'rtasida qubba shaklda ushlar qismi mavjud. Idish qorin qismining faqat yuqorisiga mayda islmiy naqshlar ishlangan. Choynakning jo'mragining yon tomolari o'simliksimon naqsh tushirilgan. Choynak dastasiga panjarali o'yma naqsh bilan bezatilgan. Muzey ko'rgazmasidagi kandakorlik asarlarini tomosha qilib, XIX-XX asrlarda yaratilgan Xorazm kandakorlik buyumlari badiiy jihatdan yuksak sifatga ega bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

XX asr boshlariga kelib arzon fabrika buyumlarining ko'payib ketishi kandakor ustalar ishiga talab keskin kamayishiga olib keldi. Uy-ro'zig'or uchun turli hajmli tunuka va plastmassadan ishlangan idishlar, choynak, chelak va bankalarning paydo bo'lishi tung, qumg'on, jom, mis ko'zalarni turmushdan siqib chiqardi. Lekin asosiy maqsad buyumlarning badiiyligi, milliyliigi, ularning mukammal tomonlari, qolaversa mahalliy xususiyatlari bilan bog'liqdir. Fabrikalarda ishlab chiqarilgan sun'iy materiallardan ishlangan buyumlarning birontasi tabiiy materiallardan har tomonlama puxta ishlangan kandakorlik buyumlarning o'rnini bosa olmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Xorazmda qadimdan kandakorlik san'ati naqadar rivoj topganini guvohi bo'lamiz. XIX-XX asr Xorazm badiiy kandakorligi buyumlari nihoyatda xilma-xil bo'lgan. Shulardan qumg'on, tuncha, tung, samovar, selobcha, choynak, mis lagan kabi buyumlar keng qarqalgan. Xorazm badiiy kandakorlik buyumlarning o'ziga xosligi shakllari bilan ajralib turadi. Vohaning kandakorlik buyumlari faqatgina shakli jihatdan emas, balki naqshlarining rang-barangligi jihatdan ham o'ziga xos xususiyatlariga ega ekanligiga amin bo'lamiz. Xiva kandakor ustalari naqshlarida o'simliksimon naqshlardan: olmagul, yakka tanob, qo'sh tanob,

⁵ "Ичан-қалъа" давлат музей-кўрикхона фонди ҳужжатлари

⁶ Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. – Тошкент: Меҳнат, 1991.

to'rbarg, geometrik naqshlardan: zanjira, turunj, ilon izi kabi naqshlarni ko'p qo'llaganini ko'rishimiz mumkin.

Umuman olganda yurtimiz tarixi, an'analarini, madaniy merosini o'rganish, ilmiy jihatdan tadqiq etish, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan san'at durdonalarini avaylab-asrash, saqlash hamda kelajak avlodga yetkazish hozirgi kunning muhim vazifalaridan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 29
2. Абдуллаев Т. Маъданга битилган қўшиқ. - Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.
3. G.Sultanova. "Ichan qal'a" davlat muzey qo'rixonasidagi kandakorlik namunalari // Moziydan sado" Ilmiy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal. Toshkent, 2022. №2/94. - B. 43-46
4. "Ichan-qal'a" davlat muzey-qo'riqxona fondi hujjatlari.
5. Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. - Тошкент: Меҳнат, 1991.